



Iste'mol kayfiyati sharhi

2025-yil
II chorak

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

Iste'mol kayfiyati

2025-yil iyul oyida iste'mol kayfiyatini o'rganish maqsadida o'tkazilgan so'rovlarda jami 3 000 dan ortiq aholi ishtirok etdi. Ushbu davrda aholining iste'mol kayfiyatida ijobiy tendensiyalar saqlanib, aholining iste'mol kayfiyati umumiy barqaror holatda shakllanmoqda. Ayrim ko'rsatkichlarda biroz pasayishlar ham qayd etildi.

Respondentlarning daromadlar o'sishi bo'yicha ijobiy kutilmalari yuqoriligi saqlanib qolmoqda.

Xarajatlarga oid kutilmalar esa deyarli o'zgarmagan holda barqaror shakllanmoqda. Bu aholining yuqori iste'mol talabi saqlanib qolayotganini ifodalaydi.

Shu bilan birga, II chorakda jamg'arishga moyillik hamda kreditga bo'lgan talabda biroz pasayish qayd etildi. Jamg'arishga bo'lgan moyillik o'tgan chorakka nisbatan biroz pasayishiga qaramasdan yuqoriligicha qolmoqda.


Kreditga bo'lgan talabning kamayishi respondentlarda moliyaviy xatarlarga nisbatan ehtiyotkor yondashuv shakllanayotganini ifodalaydi.

Umuman olganda, aholining iste'mol kayfiyatida keskin o'zgarishlar qayd etilmagan.


Daromad subindeksi

Iqtisodiyotdagi yuqori faollik natijasida aholi daromadlaridagi o'sish tendensiyasi barqaror saqlanmoqda. Daromad subindeksi so'nggi choraklarda o'zgarishsiz yuqori darajada shakllanmoqda. Xususan, joriy yilning II choragida ushbu ko'rsatkich **70,7** bandni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,4 bandga yuqori bo'ldi (1-2-rasmlar).

1-rasm. Daromad subindeksi (band)



2-rasm. Daromad subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz band)



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.


Mazkur davrda qishloq xo'jaligidagi mavsumiy ish faolligi aholi bandligi va vaqtinchalik daromad manbalari oshishiga xizmat qildi. Bu esa daromadlar subindeksida ijobiy impuls sifatida namoyon bo'ldi (3-rasm).

So'rov natijalariga ko'ra, aholining **65,4 foizi** kelgusi 12 oyda daromadlari oshishini kutmoqda. Daromadi kamayishini ta'kidlaganlar ulushi 11,7 foizni tashkil etib, o'tgan chorakka nisbatan biroz pasaygan. Shu bilan birga, daromadlari o'zgarmasligini kutayotganlar ulushi 22,9 foizgacha oshgan.


Ushbu holat aholi orasida daromadlar shakllanishiga bo'lgan ijobiy kutilmalarning saqlanib qolayotganini ko'rsatadi (3-rasm).

2024-yilning mos davriga nisbatan daromadlari oshishini kutayotganlar va daromadlari kamayishini ta'kidlaganlar ulushi mos ravishda 1,7 va 1,8 foiz bandga ortgan.

3-rasm. Daromadlari o'zgarishi kutilmalari bo'yicha javoblar taqsimoti (ulushi, foizda)




4-rasm. Daromadlar kesimida javoblar taqsimoti (ulushi, foizda)



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

2025-yilning II choragida o'tgan chorakka nisbatan kelgusida daromadlari oshishini kutayotganlar ulushi aholining ayrim qatlamlarida sezilarsiz pasaygan bo'lsa (5 mln so'mgacha, 7-10 mln so'm va 15-20 mln so'm daromadlilar), qolgan guruhlarda (5-7 mln so'm, 10-15 mln so'm va 20 mln so'mdan yuqori) daromadlarining oshishini kutganlar ulushi ortgan (4-rasm).

5-rasm. Respondentlarning daromad manbalari (ulushi, foizda)



6-rasm. Faoliyat sohalari kesimida daromadlari o'zgarishi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)

Soxalar	kupayadi	uzgarihsiz qoladi	kamayadi
kafe-restoran	84	5	10
tashish xizmati	75	8	17
qurilish	74	18	8
qishloq xo'jaligi	74	18	7
ishlab chiqarish	73	17	10
davlat boshqaruvi	72	17	12
turizm	72	26	2
fan-ta'lim	70	21	9
savdo	68	25	8
boshqa	64	22	14
maishiy xizmat	64	24	12
tibbiyot	63	26	11
kommunal xizmat	62	28	10
AT va OAV	60	18	22
bank va moliya	59	27	13

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Daromad manbalari bo'yicha respondentlarning 68 foizi (2025 yilning I choragida 59 foiz) rasmiy ish xaqidan daromad olishini ta'kidlagan (5-rasm). O'tgan chorakka nisbatan mulk ijarasidan daromad oluvchilar ulushi ortgan bo'lsa, tomorqa va yollanma ishlardan, kunlik ish hamda stipendiya va nafaqalardan daromad oluvchilar ulushi biroz kamaygan. Tadbirkorlik va savdo, pul o'tkazmalari hamda dividend orqali daromad oluvchilar ulushi avvalgi davrdagi darajasida qolgan.


Kelgusidagi daromadlar bo'yicha kutilmalar sohalar kesimida turlicha shakllanmoqda. Ayniqsa, kafe-restoran, tashish xizmati, qurilish, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, davlat boshqaruvi, turizm va fan-ta'lim sohalarida faoliyat yurituvchi respondentlarning 70 foizdan ortig'i kelgusida daromadlari o'sishini kutmoqda.

Biznes sohasidagi optimistik kutilmalar mavsumiylik va yangi xizmat turlari, shuningdek, mahalliy va xalqaro turistlar oqimi ortib borayotgani bilan bog'liq bo'lsa, byudjet xodimlari oyliklarini oshirilishi ushbu soha vakillari kutilmalarida namoyon bo'lmoqda. Axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalari, kommunal xizmatlar, tibbiyot, maishiy xizmat va savdo sohalaridagi respondentlarning 60 foizdan ko'pi kelgusida daromadlari oshishini kutmoqda (6-rasm).


Xarajat subindeksi

Respondentlarning xarajatlar bo'yicha kutilmalaridan hisoblangan subindeks so'nggi choraklarda o'zgarishsiz shakllanmoqda. Mazkur davrda xarajat subindeksi **77,8 bandga** teng bo'lib, o'tgan chorak darajasida shakllangan (7-8-rasmlar).

7-rasm. Xarajat subindeksi (band)



8-rasm. Xarajat subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz bandda)




Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.


Xarajat subindeksining yuqori darajada saqlanib qolishi qishloq xo'jaligi va qurilish sohalaridagi mavsumiy faollik hamda ta'lim, to'y marosimlari, bayram va turizm kabilarga sarf xarajatlarning ko'payishi bilan izohlanishi mumkin.

So'rovnoma ishtirok etganlarning 77 foizi (*o'tgan chorakda 78 foiz*) kelgusi 12 oyda xarajatlarning oshishini kutmoqda. Bu esa, iste'molchilarning kelgusi xarajatlari bo'yicha kutilmalarida keskin o'zgarishlar kutilmayotganini ko'rsatadi (9-rasm).

9-rasm. Kelgusi xarajatlarning o'zgarishi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)



10-rasm. Daromadlar kesimida xarajatlarning o'zgarishi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Kelgusida xarajatlarini o'zgarmasligini kutayotgan so'rovnoma ishtirokchilari ulushi o'tgan chorakka nisbatan biroz oshib 14,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, kelgusi xarajatlari qisqarishini kutayotganlar ulushi 0,7 foiz bandga qisqarib, 8,0 foizni tashkil etdi (9-rasm).

2025-yil II chorakda quyi va o'rta yuqori daromadlilar (3 mln so'mgacha, 10-15 mln so'm va 15-20 mln so'm) kelgusi chorakda xarajatlarning kamayishini kutishmoqda (10-rasm). Shu bilan birga, yuqori daromadli (20 mln so'mdan yuqori) respondentlar ko'proq xarajat qilishlari mumkinligini ta'kidlashgan.

11-rasm. Xarajatlar bo'yicha kutilmalar, aholi daromadlari kesimida (ulushi, foizda)

Kelgusi xarajatlar	uy-joy ta'miri	ta'lim	boshqalar	davolanish	to'y	avtomobil	sayohat	xarid qilmaymiz	uy-joy xaridi	maishiy texnika	oilaviy bayram	mebellar xaridi	elektron qurilma
2 mln.so'mgacha	31	17	12	18	8	9	4	13	6	5	6	4	4
2 - 3 mln.so'm	24	15	10	13	8	9	6	16	8	8	4	6	3
3 - 5 mln.so'm	29	17	15	14	10	9	7	9	8	6	8	5	4
5 - 7 mln.so'm	31	17	17	14	13	10	9	9	6	7	7	5	4
7 - 10 mln.so'm	31	19	16	14	11	13	10	12	10	7	7	7	3
10 - 15 mln.so'm	29	21	16	14	16	12	14	9	9	9	9	9	4
15 - 20 mln.so'm	22	17	24	13	13	16	18	8	14	8	8	8	2
20 mln.so'mdan yuqori	36	19	14	19	19	17	21	5	16	10	11	12	4

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Aholining barcha qatlamlarida **uy-joy ta'miri** uchun xarajatlar yuqori ulushga ega bo'lmoqda. Shuningdek, asosiy xarajatlar qatorida **ta'lim** va **davolanish** uchun qilinadigan sarflar yuqoriligicha qolmoqda (11-rasm).


Respondentlarning yosh guruhlari bo'yicha tahlil qilinganda, asosan 18-30 yosh orasidagi ishtirokchilar uy-joy ta'miri, ta'lim xarajatlarini rejalashtirayotganligini ta'kidlashgan bo'lsa, o'rta yosh vakillari (31-40 yoshlilar) asosan uy-joylarini ta'mirlashni, 50 yoshdan yuqorilar esa davolanish va boshqa xarajatlarni ta'kidlashgan (12-rasm).

12-rasm. Yosh kesimida xarajatlar tarkibi (ulushi, foizda)

Yosh chegarasi	uy-joy ta'miri	ta'lim	davolanish	boshqalar	xarid qilmaymiz	maishiy texnika	oilaviy bayram	sayohat	avtomobil	to'y	uy-joy xaridi	mebellar xaridi	elektron qurilma
18 yoshdan kichik	20	31	12	17	9	8	7	11	10	12	9	6	10
18-30 yoshgacha	26	24	17	19	9	10	9	8	10	9	6	6	5
31-40 yoshgacha	26	17	19	18	15	8	8	7	8	4	7	3	5
41-50 yoshgacha	29	24	21	16	13	8	7	5	8	8	5	3	2
51-60 yoshgacha	29	18	28	19	14	8	5	6	7	9	4	4	1
60 yoshdan katta	27	12	20	24	0	16	14	14	6	6	2	6	0

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Kelgusi chorakda rejalashtirayotgan yirik xaridlar bo'yicha so'rov natijalariga ko'ra, respondentlar asosan uy-joy ta'mirlash, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi yo'nalishlarda yirik xarajatlarni rejalashtirmoqdalar.

13-rasm. Yirik xaridlar/xarajatlar o'zgarishi (ulushi, foizda)

O'tgan davrda amalga oshirilgan yirik xaridlar/xarajatlar



Kelgusi oylarda yirik xaridlar/xarajatlar bo'yicha kutilmalar

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Shu bilan birga, avtomobil xaridi, to'y marosimlari va sayohat qilish kabi xarajatlar bo'yicha kutilmalarning ulushi ham yuqori shakllanmoqda va bu ushbu tovar va xizmatlarga bo'lgan talab kelgusi davrda ham yuqori qolishini ko'rsatadi (13-rasm).

Kredit subindeksi

So'nggi ikki chorakdagi o'sishdan so'ng kredit subindeksida biroz pasayish kuzatildi. Joriy yilning II choragida kredit subindeksi avvalgi chorakka nisbatan **0,9 bandga** pasayib, **66,4 bandni** tashkil etdi (14-15-rasmlar).

14-rasm. Kredit subindeksi (band)**15-rasm. Kredit subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz bandda)**


Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Kelgusi 12 oyda kredit olishni rejalashtirayotganlar ulushi o'tgan chorakka nisbatan 2,2 foiz bandga kamayib, 56,5 foizga teng bo'ldi.


Mazkur davrda kreditga bo'lgan talabning kamayishini bildirganlar ulushi deyarli o'zgarmagan bo'lsa, o'zgarmasligini ta'kidlaganlar ulushi 1,8 foiz bandga ko'payib, 30,3 foizni tashkil etdi (16-rasm).

Kelgusida kredit olishni rejalashtirayotganlar ulushi o'tgan chorakka nisbatan 7-15 mln so'mgacha hamda 20 mln so'mdan yuqori daromadli guruhlarda oshgan bo'lsa, 7 mln so'mgacha daromadli guruhlarda esa kamaygan. Shuningdek, 20 mln so'mdan yuqori daromadlilar qolgan guruhlariga nisbatan kelgusida kreditga bo'lgan talablari kamayishini ko'proq kutmoqdalar (17-rasm).

16-rasm. Kelgusidagi kreditga bo'lgan talab o'zgarishi bo'yicha kutilmalar taqsimoti (ulushi, foizda)



17-rasm. Daromadlar darajasi kesimida kreditga bo'lgan talab (ulushi, foizda)



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Respondentlarning kelgusi sarflar va kreditga bo'lgan ehtiyojlari solishtirilganda, kreditga ehtiyoji yuqorilar asosan, uy-joy ta'miri, ta'lim, davolanish, to'y qilish va avtomobil sotib olish kabi masalalarni belgilashgan (18-rasm).

Bu, o'rta muddatda moliyaviy rejalarda mazkur yo'nalishlar muhim o'rin tutishini anglatadi.



18-rasm. Kelgusida kreditga va xaridlarga bo'lgan talabning shakllanishi (ulushi, foizda)

	uy-joy ta'miri	ta'lim	boshqa- lar	davola- nish	to'y	avtomo- bil	xarid qilmay- miz	sayohat	uy-joy xaridi	oilaviy bayram	maishiy texnika	mebel- lar xaridi	elektron qurilma
oshadi	30	18	13	14	12	12	10	9	13	4	7	5	2
biroz oshadi	31	19	17	16	13	15	6	9	9	10	9	8	4
o'zgarishs iz qoladi	31	18	16	14	13	10	11	9	8	8	7	7	4
biroz kamayadi	23	19	14	14	12	14	13	6	8	7	8	4	5
kamayadi	28	23	18	13	13	8	8	9	7	8	4	7	3
kreditga ehtiyoj yo'q	28	15	16	14	9	9	14	11	5	8	7	7	3

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Jamg'arish subindeksi



Jamg'arishga bo'lgan moyillikdagi o'sish sur'ati biroz sekinlashdi. Joriy yilning II choragida jamg'arish kayfiyati subindeksi o'tgan chorakka nisbatan **1,1 bandga** pasayib, **68,3 bandni** tashkil etdi (19-20-rasmlar).

19-rasm. Jamg'arish subindeksi (band)**20-rasm. Jamg'arish subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz bandda)**

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Shu bilan birga, mazkur ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan **1,1 bandga** yuqoriligi aholining jamg'arishga bo'lgan moyilligi barqaror darajada qolayotgani bilan izohlanishi mumkin.

Mazkur davrda jamg'armalari oshishini kutayotgan respondentlar ulushi 62,6 foizni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos choragiga nisbatan biroz oshgan (21-rasm).

21-rasm. Respondentlarning jamg'armalari o'zgarishi bo'yicha kutilmalari (ulushi, foizda)**22-rasm. Jamg'armaning yetarlilik darajasi bo'yicha kutilmalari (ulushi, foizda)**

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Jamg'armalarining o'zgarmasligini kutayotgan respondentlar ulushi 1,4 foiz bandga oshib, 23 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, jamg'armalarining kamayishini kutayotganlar ulushi deyarli o'zgarishsiz qolib, 14,4 foizni tashkil etdi.



Bu esa respondentlarning xarajatlari oshishi sharoitida ma'lum pul-mablag'larini jamg'arish imkoniyati mavjudligini anglatadi.

Respondentlar orasida kelgusidagi jamg'armalarining yetarliligi borasida biroz o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, jamg'arma mablag'i 1-3 oyga yetadi deb hisoblaganlar ulushi biroz oshgan bo'lsa, 1 oyga yetadi deb hisoblaganlar ulushi kamaygan (22-rasm).

Shu bilan birga, jamg'armaga ega emasligini bildirganlar hamda jamg'armasini uzoqroq muddatga yetadi deb hisoblaganlar ulushida o'zgarish kuzatilmadi (22-rasm).

So'rovnoma ishtirokchilarining asosiy qismi moliyaviy holatlarini ijobiy baholagan. Avvalgi chorakka nisbatan moliyaviy sharoitlari yaxshilangan, deb hisoblaganlar soni ortib borgan bo'lsa, moliyaviy holatini yomonlashgan, deb hisoblagan respondentlar soni kamaygan (23-rasm).

Aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi ortib borayotganligi depozitlar hajmining joriy yilda ham barqaror o'sib borishida namoyon bo'lmoqda. Xususan, 2025-yilning birinchi yarim yilligida milliy valyutadagi muddatli omonatlar 2024-yilning mos davriga nisbatan 55 foizga oshdi (24-rasm).



23-rasm. Respondentlarning moliyaviy holati o'zgarishi (ulushi, foizda)**24-rasm. Aholi muddatli depozitlari qoldig'i o'sishi (trln. so'm, yillik foizda)**

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari va kuzatuvlari asosida.

Iqtisodiyot bo'yicha kutilmalar

Aholining mamlakat iqtisodiy istiqboli bo'yicha ijobiy kutilmalari saqlanib qolmoqda. So'rovnoma natijalariga ko'ra, 61 foiz respondentlar kelgusida iqtisodiy vaziyatning yanada yaxshilanishiga ishonch bildirmoqda.

Shuningdek, 27 foiz respondentlar joriy iqtisodiy jarayonlar saqlanib qolishini taxmin qilgan bo'lsa, 11 foiz respondentlar o'z xavotirlarini bildirganlar (25-rasm).

25-rasm. Kelgusi 12 oy uchun mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)**26-rasm. Kelgusi 3 yilda mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)**

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

O'rta muddatli iqtisodiy kutilmalar bo'yicha aholining munosabati ijobiy shakllanmoqda. So'rovnoma ishtirokchilarining 70 foizi kelgusi 3 yilda iqtisodiyotning rivojlanishini kutayotgan bo'lsa, 22 foizi esa hozirgi barqaror holatning saqlanishini prognoz qilmoqda (26-rasm).

Shu bilan birga, iqtisodiy vaziyatga nisbatan salbiy qarashda bo'lganlar ulushi avvalgi chorakka nisbatan 3 foizga kamayib, 8 foizni tashkil etdi.

Iste'mol kayfiyati indeksi

Markaziy bank tomonidan aholining keng soha vakillarini qamrab olgan holda o'tkaziladigan so'rovlar natijalari asosida berib boriladigan **iste'mol kayfiyati indeksi¹ (IKI)** ni hisoblashda so'rov ishtirokchilarining kelgusidagi **daromadlari, xarajatlari, kreditlari va jamg'armalari o'zgarishi** bo'yicha tanlangan javob variantlari sonidan kelib chiqib shakllantiriladi.

Bunda respondentlar tomonidan belgilangan javoblar variantlari quyidagi vaznlar orqali umumlashtiriladi va normallashtiriladi:

sezilarli darajada ko'payish/oshish (ijobiy) – 100;

biroz ko'payish/oshish (ijobiy) – 75;

neytral javob (o'zgarishsiz) – 50;

biroz kamayish (biroz salbiy) – 25;

sezilarli darajada kamayish (salbiy) – 0.

Agar hisoblangan subindeks ko'rsatkichi 50 bandga teng bo'lsa, so'rov ishtirokchilari o'rganilayotgan kutilmalari o'zgarmaganini ko'rsatadi. Agar 50 banddan yuqori bo'lsa, kutilmalar oshayotganini bildiradi. Agar subindeks ko'rsatkichi 50 banddan past bo'lsa, kutilmalar pasayganini bildiradi.

Shuningdek, subindeks 100 bandga teng bo'lishi barcha respondentlar yuqori oshishini kutayotganini anglatadi, 0 bandga teng bo'lishi barcha sezilarli kamayishini bildirganini anglatadi.

¹ Indeks ko'rsatkichi 0 dan +100 oralig'ida bo'lib, ko'rsatkich +100 ga yaqinlashgani sari iste'mol kayfiyatidagi ijobiylikni ifodalaydi.

© O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025-yil

Pul-kredit siyosati departamenti tomonidan tayyorlandi.

O'z taklif va e'tirozlaringizni quyidagi manzilga jo'natishingiz mumkin:

E-mail: sinogamov@cbu.uz

Tel.: (+998) 71 212-60-22